

Yasama So'zlar Derivatsiyasi Xususida

Aliyeva Shaxnoza Aybekovna

Andijon davlat universiteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Abstract:

Mazkur maqolada affiksatsiya usuli bilan yasalgan so'zlarning derivatsiyasi, ularning tahlili, tamoyillari xususida fikr bildirilgan. Shuningdek, bazal hamda hosila struktura to'g'risida ayrim nazariy fikrlar berilgan. Yasama so'zlarda murakkab tarkibli qo'shimchalar derivatsion aspektida o'rganilgan.

Keywords: derivatsiya, operator, operand, bazal struktura. motivlashtiruvchi asos, hosila struktura, verbalizator, nominalizator, ad'ektivator, adverbializator.

KIRISH

Ma'lumki, leksik derivatsiya yasama so'zlarni taqozo qiladi. Har qanday yasama so'zning derivati leksik derivatsiya mahsuli sanaladi. Ayni paytda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, til sistemasi til birliklarining derivatsion-funksional modelini o'zida mujassamlashtirgan. Bu esa yangi-yangi til va nutq birliklarining shakllanishini faollashtiradi. Bu modellarning strukturasi derivat va motivlashtiruvchi bazadan tashkil topadi. Boshqacha aytganda, har bir hosila struktura derivat sanalsa, bazal (dastlabki) struktura esa motivlashtiruvchi asos sanaladi:

Oltita bolani bag'riga olgan Mahkam taqachi – shu.(R.F.)

Keltirilgan misolda *taqachi* yasama so'zi ishtirok etganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu so'zni yuqoridagi nuqtai nazarga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsak, *taqa* motivlashtiruvchi asos orqali taqachi derivati (hosila struktura) yasalgan.

Shuni ham aytib o'tish joizki, affiksatsiya usuli bilan hosil bo'lgan derivatlar tarkibidagi operatorlar nafaqat leksik derivatsiya tarkibiy qismini, balki kezi kelganda, morfologik derivatsiya operatori bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu holat affikslarning shakldoshlik xususiyati bilan xarakterlanadi:

1. *Ayniqsa, hozir har bir masalaga yangicha yondashuv kerak! ([https:// old.xs.uz](https://old.xs.uz)).*
2. *Shu payt uzoqdan bir uycha ko'rindi (Zumrad va Qimmat. Xalq ertagi).*

Keltirilgan misollarning birinchisida **yangicha** so'zi ishtirok etgan bo'lib, bu so'z hosila struktura sifatida derivatsion jihatdan **yangi** operand, **–cha** operatoridan tashkil topgan. Keyingi misolda esa **–cha** qo'shimchasi boshqa motivlashtiruvchi bazaga qo'shib, butunlay boshqa hosilani shakllantirayapti. Bu vaziyatda **uycha** so'zidagi **–cha** qo'shimchasi endi kichraytirish qo'shimchasi bo'lib, yangi so'z yasamayapti, balki lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha sifatida faollashayapti. Bunda biz birinchi o'rinda leksik derivatsiya, ikkinchi o'rinda esa morfologik derivatsiya mahsuli shakllanganligini ko'ramiz.

Ravshanki, yasama so'zlarda murakkab tarkibli qo'shimchalar ham mavjud. Bunday qo'shimchalar shaklan bir necha sodda qo'shimchalardan iboratdek ko'rinsa ham, aslida ajratib bo'lmaydigan affikslar sirasiga kiradi: *hunarmandchilik*, *yog'ingarchilik*, *loygarchilik* va h.k. Masala tavsifiga derivatsion nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, bunday qo'shimchalarni biz murakkab emas, balki sodda operator deb qaraymiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

N.K.Turniyozovning ishlarida *dubl'operator* terminidan foydalaniladi. Olimning e'tirof etishicha, *dubl'operator* tarkibli ekanligi bilan sodda operatorlardan farqlanadi. Biroq bajaradigan funktsiyalariga ko'ra sodda va *dubl'operator*lar o'rtasida farq yo'q[1:42].

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan *hunarmandchilik*, *yog'ingarchilik*, *loygarchilik* singari hosilalarning operatorlari esa e'tirof etilganidek, shaklan murakkabdek ko'rinsa ham, aslida soddadir. Bunday vaziyatda biz *dubl'operator* terminiga murojaat eta olmaymiz. E'tiborimizni mazkur so'zlarning tahliliga qaratsak, *hunarmandchilik* so'zida *hunarmand* – operand, *-chilik* – operator, *yog'ingarchilik* so'zida *yog'in* - operand, *-garchilik* – operator, *loygarchilik* so'zida *loy* – operand, *-garchilik* - operator sanaladi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, leksik derivatsiya tamoyillariga ko'ra derivatni shakllantirayotgan asos strukturaga ikki va undan ortiq yasovchi qo'shimcha qo'shilganda ham biz uni *dubl'operator* ham, polioperator ham sanay olmaymiz. Chunki bunday vaziyatda asosga qo'shilgan qo'shimcha operator sanalgani bilan, ikkinchi so'z yasovchi qo'shimchani olganda, birinchi operator keyingisiga o'z o'rnini bo'shatib beradi va so'nggi leksik ma'noni shakllantirgan eng oxirgi yasovchi qo'shimcha derivatsiya operatori sanaladi. Tabiiyki, bunday vaziyatda biz *dubl'operator* tushunchasiga murojaat eta olmaymiz:

Hindistonda hozir yog'ingarchilik mavsumi. (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

Keltirilgan misoldagi **yog'ingarchilik** so'zi leksik derivatsiya mahsuli bo'lib, uni tarkibiga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsak, **yog'+in+garchilik** kabi qismlarga ajratamiz. Agar mazkur so'z tahliliga derivatsion tamoyillarga ko'ra yondashsak, unda **yog'** qismini operand sanay olmaymiz. Biroq shuni ham e'tiborga olish lozimki, **yog'** so'zi faqat **yog'in** so'ziga nisbatan operand sanalishi mumkin. Unda bu so'zning operatori **-in** affiksi sanaladi. Berilgan so'zga **-garchilik** affiksi qo'shilar ekan, **-in** affiksi endi o'z o'rnini yangi operatoriga bo'shatib beradi. Natijada, **yog'ingarchilik** so'ziga nisbatan biz *yog'in* so'zini operand, **-garchilik** qo'shimchasini esa operator deb qaray olamiz. Shu sababdan ham biz bunday vaziyatlarda *dubl'operator* terminini ham, polioperator terminini ham qo'llay olmaymiz.

Biroq, ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan vaziyatlarda leksik derivatsiya tamoyillaridan tashqari sintaktik derivatsiya tamoyillari ham ko'zga tashlanadi. Buni biz berilgan yasama so'z tarkibidagi asos va qo'shimchalar o'rtasidagi mikrosintagmatik munosabatlarda ko'rishimiz mumkin.

Mikrosintagmatik munosabatlar haqida gapirar ekanmiz, shuni ham ta'kidlash lozimki, bunday munosabatlar fonematik sathdanoq boshlanadi. Zero, oddiy fonema ham sintagmatik qatorda o'tganida faollashadi. Qizig'i shundaki, ma'lum til birligi paradigmatic qatordan sintagmatik qatorda o'tar ekan, o'zaro sintaktik bog'lanishli bo'ladi. Unda biz so'zlarning o'zaro bog'lanishini kuzatamiz. Ammo paradigmatic qator unsurlarining sintagmatik munosabati avvalo fonematik sathda, keyin esa bir so'z tarkibida morfemalarning o'zaro bog'lanishida kuzatiladi. Boshqacha aytganda, fonemalar, morfemalar va so'zlar paradigmatic qator unsurlarini tashkil qiladi[2:47-45]. So'z birikmasi va gaplarning paradigmasi endi boshqa masalani taqozo qiladi.

Umuman, paradigmatic qator unsurlari sintagmatik qatorda o'tar ekan, biz tilning nutqqa ko'chish jarayonini kuzatishimiz mumkin. Bu jarayonda biz umumiylikdan xususiylikka, virtuallikdan aniqlikka qarab siljishni ko'rishimiz mumkin. Demak, til unsurlarining o'zaro jonli aloqasi sintagmatik qatorda amalga oshadi. Bu esa, o'z navbatida, sintagmatik qatorda turli

morfemalarning o'zaro ketma-ketlik asosida bog'lanishini ham o'ziga xos sintaksis ekanligiga jiddiy dalil sanaladi[3:73-74].

Ta'kidlash joizki, til birliklarining yotiq chiziqda o'zaro bog'lanishida ham biz o'ziga xos iyerarxik munosabatni kuzatamiz. Bu haqda A.Rahimov quyidagilarni yozadi: “So'z yasalishi jarayonini tashkil etuvchi til birliklari o'rtasidagi sintagmatik uzviylik orqali subordinativ iyerarxiya o'z ifodasini topadi. Xususan, morfologik yasaliş orqali morfem sath birliklarining leksik sathga o'tishi subordinativ iyerarxiyaga asoslanadi. Aynan ana shu omil morfologik asosli yasamalarning boshqa yasalişga nisbatan farqlanuvchi hodisa sifatida baholanishiga sabab bo'ladi”[4:75].

Masalan, **gul** so'ziga **-li, -chi, -dor, -cha, -siz** kabi qo'shimchalar qo'shilib, turli leksik – morfologik shaklda kelishi (**gulli, gulchi, guldor, gulcha, gulsiz**) ana shunday mikrosintagmatik munosabatlarni hamda shu bilan birga, subordinativ iyerarxiyani shakllantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Demak, pradigmatik qator doirasida ham eng kichik sintaktik munosabatlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Bu haqda prof. N.Turniyozov quyidagilarni yozadi: “Bunday munosabatlarni taqozo etuvchi sintaksisni kichik sintaksis deb nomlash mumkin. Bunda morfemalar munosabati statik xarakterda bo'ladi. Chunki so'z yasaliş hali bu uning faollashuvi degan xam emas”[5:37].

Yuqorida keltirilgan misollarga derivatsion nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, **gulli, guldor, gulsiz, gulchi** kabi so'zlar leksik derivatsiyani, **gulcha** so'zi esa morfologik derivatsiyani taqozo qiladi.

Bunda har bir so'zda **gul** so'zi operand, **-li, -chi, -dor, -cha, -siz** kabi qo'shimchalar derivatsiya operatori maqomida keladi.

Ko'rinadiki, yuqoridagi misollarda leksik derivatsiyani hosil qilgan yasama so'zlarning har biri $A+B=AB$ modeli asosida shakllanayapti. Bu vaziyatda operandlar ham, operator ham o'ziga xos lingvistik maqomga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Xususan, modelning birinchi komponenti, ya'ni A – operand (so'z yasovchi asos), ikkinchi komponenti, ya'ni B – operator (yasovchi vosita) birgalikda derivatni hosil qilayapti (AB).

Misollardan ko'rinadiki, AB modelida A bitta so'z bilan ifodalansa-da, B o'zgarayapti. Operatorning o'zgarishi esa har safar yangi derivat hosil bo'lishiga olib kelayapti. Tabiiyki, bu jarayon so'zning leksik ma'nosining o'zgarishiga olib kelayapti.

Masalan, $gul+chi= gulchi$ derivati “asosdan anglashilgan narsa bilan shug'illanuvchi shaxs”ni ifodalaydi.

Umuman, -chi operatori har doim “asosdan anglashilgan narsa bilan shug'ullanuvchi shaxs” hukmini ifodalaydi. Buni biz har qanday yasama shaxs otida kuzatishimiz mumkin: *karnaychi, ishchi, dutorchi, tilchi* va h. k.

Aytish lozimki, olimlar yasama so'zlarning derivatsion jarayonida AB modelini o'ziga xos simvollar bilan ifodalaydi. Bu xususda so'z yuritganida P.A.Soboleva so'zning operator tirkaladigan qismini ob'ekt ma'nosidagi simvol O bilan belgilaydi. Mazkur simvolga qo'shiladigan operatorlarni R1–verbalizator, R2– nominalizator, R3– ad'ektivator, R4– adverbializator vazifalarida qo'llanadigan o'ta faol vosita sifatida izohlaydi. Ko'rinadiki, har bir simvol yasama so'zni shakllantiruvchi operator xarakterini aks ettiradi. Boshqacha aytganda, R1– verbalizator fe'l yasovchi, R2– nominalizator ot yasovchi, R3– ad'ektivator sifat yasovchi, R4– adverbializator ravish yasovchi operatorlarni ko'rsatadi.

Agar biz *gulchi* so'zini P.A.Sobolevaning modellashtirish tamoyiliga asoslanib tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi holatga duch kelamiz:

Gulchi:

- *gul* – O (ob'ekt) – operand;
- *chi* – R2 – nominalizator;
- *gulchi* – X – derivat (hosila);

Albatta, mazkur modellash tamoyiliga ko'ra biz operatorlarni turli nom bilan atayiz va turlicha belgilar bilan belgilaymiz:

Gulla:

- *gul* – O (ob'ekt) – operand;
- *la* – R1 – verbalizator
- *gulla* – X – derivat (hosila);

Gulli:

- *gul* – O (ob'ekt) – operand;
- *li* – R3 – ad'ektivator;
- *gulli* – X – derivat (hosila);

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, operatori verbalizator bilan ifodalangan derivatlar ma'nosiga ko'ra mohiyatan “bajar, amalga oshir” predikatiga tengdir. Masalan, *oqla*, *ishla*, *arrala*, *egovla* va h. k. Bu hosila tarkibidagi *-la* formanti zamirida aynan ma'lum bir harakatni bajarish ichki ma'nosi yotadi.

“Buning o'ziga xos dalilini ushbu operatorning analitik muqobili bo'lgan “qilmoq”ning ishtiroki misolida ham qo'rish mumkin: *randa qilmoq* – *randalamoq*. Mazkur derivatlarni hosil bo'lishida operand orqali o'z ifodasini topgan ob'ektning harakatga kelishida sub'ekt ishtiroki zarurat hisoblanadi. Ushbu zaruratni ro'yobga chiqaruvchi vosita sifatida esa *-la* operatori xizmat qiladi”[4:113].

Shuni ham aytish kerakki, verbalizator bilan ifodalangan derivatlar zamirida ma'lum bir narsa orqali maqsadli harakat bajarish mazmuni yotadi. Bunda *arra* (*arrala*), *egov* (*egovla*), *randa* (*randala*) kabi so'zlar operandlar vazifasida keladi.

Ta'kidlash joizki, *-la* operatori otga qo'shilganda “bajar, amalga oshir” ichki ma'nosini har doim ham ifodalavermaydi. Ayrim hollarda ma'lum bir narsaning o'zgarish, shakllanish jarayonini ham ifodalashi mumkin: *gulla*.

Ammo shu bilan birga, *-la* verbalizator bilan ifodalangan derivatlar, yuqorida ham guvohi bo'lganimizdek, nafaqat narsalarni ifodalovchi so'zlarga balki, sifat va olmoshlarga ham qo'shilishi mumkin:

Oq+la, *yaxshila*, *ko'kla* va *h.k.*

Sen+la, *sizla*

XULOSA

Ko'rinadiki, leksik derivatsiya o'z qonuniyatlariga ko'ra derivatsiyaning boshqa turlaridan jiddiy farq qilmaydi. Lekin ularni qorishtirib yuborib ham bo'lmaydi. Chunki yasama so'zlar bilan shug'ullanuvchi leksik derivatsiya statik xarakterli bo'lgani bois, dinamik salohiyat kasb eta olmaydi. Leksik derivatsiya statik xarakterli bo'lsa-da, uning operatori polifunksional maqomga egadir. Buni uning yangi so'z yasashida, derivat tarkibida sintaktik aloqa shakllantirishda, o'zak yoki negizga tirkalib applikativ modelni vujudga keltirishida ko'ramiz[6:9].

1. Askariy kiyim kiygan otliq anhor yoqasidagi katta bir qo'raning darvozasini qamchisining dastasi bilan taqqillatdi (M.Osim.Zulmat ichra nur).

2. Keyin paxtazorni bizdan ajratib turgan ariq bo'yidagi yolg'iz kulbaga ko'zim tushdi (Sh. Xolmirzayev. O'zbeklar).

3. Nodira Mohlaroyimga yig'lab hasrat qildi (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon).

Keltirilgan misollarning birinchisida askariy so'zi ishtirok etayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunda biz –iy qo'shimchasining sifat yasayotganligini ko'ramiz. Mazkur so'z tarkibiy qismlari to'g'ri chiziqda birlashar ekan, unda “askarlarga xos, askarchasiga” ichki ma'nosini uqib olamiz. Uning derivatsion tahlili esa quyidagicha bo'ladi:

Askariy:

➤ askar– O (ob'ekt) – operand;


➤ iy – R3– ad'e ktivator;

➤ askariy– X – derivat (hosila);

Bunda biz quyidagi formulani chiqarishimiz mumkin:

$O + R_3 = X$

Buni sxemada quyidagicha ko'rsatamiz:



Ikkinchi misolda esa paxtazor so'zi ishtirok etmoqda. Mazkur so'z paxta+zor tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, uni derivatsion aspektida tahlil qiladigan bo'lsak biz quyidagi holatga duch kelamiz:

Paxtazor:

paxta– O (ob'ekt) – operand;


zor – R2– nominalizator

paxtazor– X – derivat (hosila);

Bunda biz quyidagi formulani chiqarishimiz mumkin:

$O + R_2 = X$

Buni sxemada quyidagicha ko'rsatamiz:



Uchinchi misolimizda yig'lab so'zi mavjud bo'lib, uning tahlili quyidagicha bo'ladi:

yig'la:

yig'i– O (ob'ekt) – operand;


-la – R1–verbalizator

yig'la– X – derivat (hosila);

Bunda biz quyidagi formulani chiqarishimiz mumkin:

$O + R_1 = X$

Buni sxemada quyidagicha ko'rsatamiz:



Demak, guvohi bo'lganimizdek, yasama so'zlar nafaqat leksik, balki sintaktik derivatsiya jarayonini ham taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida mikrosintagamatik munosabatlarni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI (REFERENCES)

1. Turniyozov N. Q. O'zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish.- Samarqand, 1990.
2. Сова Л. 3. Аналитическая лингвистика. - М., 1970. - С.
3. Слюсарева Н. А. Теория Ф. де Соссюра в свете современной лингвистики -М., 1975.
4. Rahimov A. Leksik va semantik derivatsiya muammolari.Toshkent: Navro'z, 2011.
5. Turniyozov N., Turniyozova K. Funktsional sintaksisga kirish. Toshkent: "Fan", 2003.
6. Qarang:Turniyozov N.Q. Mahmud Koshg'ariy va hozirgi tilimizda so'z yasalishi hodisasi haqida//Xorijiy filologiya, №3, 2014.